

Uzbekistan Airways reyslari to'g'risida xabar

2023 1 August

2023-yil 31-iyul kuni HY017 Toshkent – Urganch qatnovi havo kemasining aniqlangan nosozligi tufayli Toshkent shahar aeroportida kechiktirildi.

Aviakompaniyaning texnik xodimlari avialaynerni ko'zdan kechirishdi. Tizimlarni sinovdan o'tkazish uchun amalga oshirilgan ishlardan so'ng, havo kemasini almashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Qatnovni amalga oshirish uchun havo kemasi almashtirildi. HY017 qatnovi yo'lovchilari boshqa bortga o'tkazildi.

Shu munosabat bilan, HY018 Urganch – Toshkent qatnovi ham kechikish bilan amalga oshirildi.

Keltirilgan noqulayliklar uchun yo'lovchilar va ularni kutib oluvchilardan uzr so'raymiz.